

XX ASRNING IKKINCHI YARMI O‘ZBEKISTON TA’LIM TIZIMIDA TIL SIYOSATI MASALALARI

Ravshanova Feruza Murodullayevna,
*O‘zR FA O‘zbek tili, adabiyoti va folklori
instituti kichik ilmiy xodim*

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.18925303>

Annotatsiya. Mazkur maqolada O‘zbekistonning mustaqillikdan avvalgi davrida ta’lim tizimining holati, unda rus tilining asosiy fan sifatida o‘qitilishi hamda bu jarayonning ijtimoiy-lingvistik oqibatlari tahlil etiladi. Shuningdek, ayni davr til siyosati doirasida rus tilining ta’lim, madaniyat va ish yuritish sohalarida qo‘llanish chastotasi aniq dalillar asosida yoritilib, uning o‘zbek tili mavqeyiga ta’siri ilmiy nuqtayi nazardan izohlanadi.

Kalit so‘zlar: til siyosati, til vaziyati, etnik aholi, rus tili, o‘zbek tili, ta’lim tizimi, milliy maktab, davlat tili.

Аннотация. В данной статье анализируется состояние системы образования Узбекистана в период до обретения независимости, преподавание русского языка как основного учебного предмета и социально-лингвистические последствия данного процесса. Также в рамках языковой политики рассматривается частота использования русского языка в сферах образования, культуры и делопроизводства на основе конкретных фактов, а его влияние на статус узбекского языка объясняется с научной точки зрения.

Ключевые слова: языковая политика, языковая ситуация, этническое население, русский язык, узбекский язык, система образования, национальная школа, государственный язык.

Abstract. This article analyzes the condition of Uzbekistan’s education system prior to independence, the teaching of the Russian language as a core subject, and the socio-linguistic consequences of this process. It also examines, within the framework of language policy, the frequency of Russian language use in education, culture, and administrative affairs based on concrete evidence, and provides a scientific explanation of its impact on the status of the Uzbek language.

Keywords: language policy, language situation, ethnic population, Russian language, Uzbek language, education system, national school, state language.

Kirish. Til siyosati mamlakatda sodir bo‘layotgan ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy vaziyatlarni o‘rgangan holda yuritiladi. Ma’lumki, O‘zbekiston til siyosati tarixida ham davr nuqtayi nazaridan ijtimoiy-siyosiy vaziyatlarga ko‘ra til siyosati olib borilgan. Bevosita O‘zbekiston mustaqil respublika sifatida shakllangunga qadar Markaziy qo‘mita (O‘zbekiston Kommunistik partiyasining Markaziy Qo‘mitasi – respublikaning siyosiy, iqtisodiy va madaniy hayotini SSSR siyosatiga muvofiq boshqaruvchi organ) tomonidan belgilangan til siyosatiga muvofiq ish yuritgan. XX asrning ikkinchi yarmida nafaqat O‘zbekiston balki Qozog‘iston, Ozarbayon, Qirg‘iziston va boshqa sobiq ittifoq respublikalarida ham Markaz tomonidan rejalashtirilgan til siyosatiga muvofiq ish yuritgan. Shu sababli, yuqorida nomi keltirilgan ittifoqdosh respublikalarda arab yozuvidan lotin yozuviga o‘tish, lotin alifbosidan kirill alifbosiga o‘tish ishlari ham bir xil vaqtda kechganligi kuzatiladi. Masalan, yuqorida nomi keltirilgan davlatlarda lotin

alifbosidan kirill alifbosiga o'tish ishlari bir vaqtda 1938 – 1939-yillarda boshlangan, 1940-yilda esa lotin alifbosidan kirill alifbosiga o'tish rasman tasdiqlangan.

Ittifoqdosh respublikalarda rus tilini keng yoyish siyosati, avvalo, lotin alifbosidan kirill alifbosiga o'tish ishlari bilan boshlangan deyish mumkin. Har qanday tilni o'rganish alifbodan boshlangani kabi, aholining kirill yozuvida o'qish va yozish ko'nikmasiga ega bo'lishi rus tilini o'zlashtirish uchun qulay sharoit yaratishga xizmat qilgan.

Adabiyotlar tahlili. XX asrning ikkinchi yarmida O'zbekiston ittifoq respublika tarkibiga kirgan bo'lsada, o'zbek tili rivoji maqsadida quyidagi ishlar amalga oshirilgan. Xususan, "Davlat va hukumat idoralarida o'zbek tilida ham ish yuritish tadbirlari ko'rildi, amalga ham oshdi. Buning uchun shu davrdagi O'zbekistonning siyosiy Rahbari O'zKP Markaziy qo'mitasining birinchi kotibi N.A.Muhiddinovning dovyuraklik bilan tutgan yo'lini, albatta, yodda saqlash kerak. Bular tilga aks etmasdan iloji yo'q edi. "Toshkent oqshomi" gazetasi bilan "Guliston" jurnali ayrim atamalarni o'zbekchada taqdim etishga ham o'tdi. Ammo mazkur harakatning taraqqiyoti uzoqqa cho'zilmadi." [5.17] Ushbu ma'lumotdan anglashiladiki, o'zbek tilini sohalarda qo'llanish doirasini kengaytirishni yanada faollashtirish maqsadida ishlar olib borilgan. Rasmiy idora, tashkilotlar ish yuritishda o'zbek tili va rus tilida faoliyat olib borgan. Biroq ish yuritishda rus tili faol qo'llangan. Ommaviy axborot vositalarida ham o'zbek va rus tillari parallel tarzda qo'llangan deyish mumkin. "Qizil O'zbekiston", "Yosh leninchi", "Saodat", "Guliston", "Sharq yulduzi", "O'zbek tili va adabiyoti" kabi bir qancha jurnal va gazetalar o'zbek tilida chop etilgan.

Bu haqda N.Mahmudovning quyidagicha izohlaydi: "Bayrog'i kommunistik mafkura bo'lgan sho'rolar til siyosati sobiq ittifoq hududdagi "biron-bir tilning imtiyozli mavqeyida emas"ligini ta'kidlasa-da, amalda bir tilning targ'ibi, taraqqiyoti va mutlaq hukmronligini ta'minlashga qaratilgan edi." [4.17]

Tadqiqot metodologiyasi. XX asrning ikkinchi yarmida O'zbekistonda rus tilining katta ijtimoiy vazifalarni bajaruvchi til sifatida shakllanishi quyidagi misollarda o'z aksini topadi. O'zbekiston SSR Maorif vazirligining 1950-yil 21-fevralda "O'zbek maktablarida rus tili va adabiyotini o'qitishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi buyrug'i asosida SSSR Butunittifoq kompartiyasi RSFSR maktablaridan O'zbekistonga 160 ga yaqin rus tili o'qituvchilari yuborilgan. O'qituvchilar viloyatlar kesimida taqsimlangan. Maktablarda rus tilini o'qitish haftasiga 17 soatga ko'tarilgan.[7:194] Maktablarda rus tilini o'qitish soatlarining oshirilishi natijasida rus tili o'qituvchilariga bo'lgan ehtiyoj yuzaga kelgan. Rus tili o'qituvchilarining faoliyatini yaxshilash maqsadida turli gazeta, jurnal va tayyorlov kurslari tashkil etiladi. Masalan, 1950-yildan boshlab "O'qituvchilar gazetasi" chop etiladi. Unda "O'zbek maktabida rus tili va adabiyoti" nomli uslubiy sahifa muntazam berila boshlangan. Xuddi shunday bo'lim "Sovet maktabi" metodik jurnalida ham berib borilgan. 1950-yildan boshlab rus tilida sinfdan tashqari o'qish uchun maxsus "O'zbek maktablari uchun kutubxona" turkumi nashr etiladi. 1950-

yildan 1957-yilgacha bu seriyadan jami 53 million nusxada nashr etiladi.[3:44] “Sovet maktabi” jurnalida rus tilini samarali o‘qitishga oid yo‘riqnomalar berib borilgan. O‘zbek tilining o‘qitilishi bilan bog‘liq metodlar ham yo‘riqnomalar berilmagan. Demak, rus tili ta‘limini yaxshilash borasidagi amaliy amalga oshirilib borilgan.

Tahlillar va natijalar. Maktabdan keyingi ta‘lim muassasalarida, ayniqsa texnika, texnologiya va tibbiyot yo‘nalishidagi o‘quv yurtlarida o‘zbek tilli guruhlar soni sekin-asta qisqarib borgan. Bu davrda til ta‘limida rus tilini o‘qitish borasidagi chora-tadbirlardan rus tili ta‘lim sifatida yaxshilanib borgan. O‘zbek tili ta‘lim sifatida esa rus tiliga qaraganda sustlashgan. O‘zbekiston texnikumlari va oliy o‘quv yurtlarida rus tili soatlarining hajmi oshirildi: masalan, ta‘lim ona tilida olib boriladigan texnikumlarda rus tili 380 soat hajmida majburiy fan sifatida o‘qitilgan, ona tiliga esa bundan to‘rt baravar kam vaqt ajratilgan. Keyinchalik texnikum o‘quv rejalaridan ona tili va milliy tarix fanlari butunlay chiqarib tashlangan. [3.44] Markaziy qo‘mitaning milliy, mahalliy tillarga nisbatan noxolis til siyosati yuritishi oqibatida bunday maktablarda ta‘lim sifatining keskin tushib ketishiga sabab bo‘ldi. O‘sha davr ziyolilari va davlat xizmatchilarining bevosita rus tilida muloqot qilishi hamda rus tilli ta‘lim tizimida farzandlarini o‘qitishi natijasida rus tilining qo‘llanishi ortib bordi.

O‘zbek maktablarida rus tilini o‘qitish soatlarining ko‘payishi gazeta va jurnallarda rus tili va adabiyotiga bag‘ishlangan sahifalarning ajratilishi, ruscha-o‘zbekcha lug‘atlarga ehtiyojni yuzaga keltirgan. 1943-yilda birinchi ruscha-o‘zbekcha maktab lug‘ati, 1954-yilda bir jildli ruscha-o‘zbekcha lug‘at, 1950–1955-yillarda besh jildli ruscha-o‘zbekcha lug‘at nashr etilgan. [3.44] Yangi ruscha-o‘zbekcha lug‘atlarning nashr etilishi, albatta, ijtimoiy vaziyatlar bilan bog‘liq. Masalan, SSSRdan tegishli soha vakillarining O‘zbekistonga ko‘chirilishi, mahalliy aholining sanoat ishlab chiqarishga jalb etilishi natijasida tilda ruscha so‘zlarning qo‘llanilishi orta boshlaydi, buning natijasida faol qo‘llangan so‘zlar lug‘atlarga kiritilib borilgan, turli sohalarga oid lug‘atlar nashr ham nashr etilgan.

1956-yil avgust oyida Toshkentda respublikalararo konferensiya bo‘lib o‘tadi. Unda milliy respublikalarda rus tilini o‘qitish metodikasi bilan bog‘liq ishlar muhokama qilinadi. Rus tili butun sovet xalqi uchun “ikkinchi ona tili” va milliy tillarning lug‘at boyligini boyitish vositasiga aylanayotganligi ta‘kidlanadi [7.191]. Shu bilan birga, konferensiya ishtirokchilari milliy maktablarda rus tili o‘qitilishining sifati hamon talab darajasida emasligi ta‘kidladi. Ular o‘quvchilarning bilim va ko‘nikmalari yetarli emasligini, ko‘plab o‘quvchilar o‘z fikrlarini erkin ifoda eta olmasligini muhokama qilinadi. Shundan so‘ng O‘zbekistonlik tilshunos olimlar tomonidan rus tilini o‘qitish metodikasiga mos keladigan rus va o‘zbek tillarining qiyosiy grammatikasi bo‘yicha materiallar ishlab chiqila boshladi. O‘zbekiston Kompartiyasi markaziy qo‘mitasi qarori bilan o‘qituvchilarga uslubiy yordam ko‘rsatish maqsadida 1957-yildan “Rus tili o‘zbek maktablarida” nomli uslubiy qo‘llanma nashr etiladi [2.132].

Rus tilini o'qitish sifatini yaxshilash hamda rus tili o'qituvchilariga bo'lgan talabning ortishi sababli rus tili o'qituvchilarini tayyorlovchi kurslar tashkil etiladi. Masalan, 1959–1960 o'quv yilida respublika milliy maktablarida 5711 nafar rus tili o'qituvchilari ishlagan bo'lsa, 1965–1966 o'quv yilida ularning soni 7857 nafarga yetadi [2.132].

Milliy maktablarda rus tili va adabiyotining o'qitilishi muammolariga bag'ishlangan II respublikalararo konferensiya 1962-yil may oyida Toshkentda o'tkaziladi. Keyinchalik bunday anjumanlar respublikaning boshqa shaharlarida ham o'tkazilib boriladi. Bu vaqtga kelib rus tili milliy maktablarda asosiy fanga aylangan edi. 1962–1963 o'quv yilidan boshlab ta'lim o'zbek tilida olib boriladigan umumta'lim maktablarining (9, 10, 11-sinflar) yuqori sinflari o'quv dasturida ona tili va adabiyoti faniga 315 soat, rus tili va adabiyot faniga 420 soat ajratilgan [2.199]. Ushbu ma'lumotdan rus tilidagi soatlar soni milliy tildagi soatlardan ustunligini namoyon qiladi.

O'zbekistonda ta'limning asosiy vazifasi rus tilidagi ta'lim soatlarini oshirish, ta'lim sifatini yaxshilash, o'quv materiallarini ishlab chiqishdan iborat bo'lgan. O'zbekiston SSR Maorif Vazirligi kollegiyasining 1973-yil 24-noyabrdagi "Ta'lim o'zbek va qoraqalpoq tillarida olib boriladigan maktablar bitiruvchi o'quvchilarining imtihonlarini rus tilida o'tkazishni joriy etish to'g'risida" qarori chiqadi. Markur qarordan so'ng O'zbekistonda ilk bor rus tiliga ixtisoslashgan maktab va sinflar ochiladi. Bunday maktablar 1979-yilda 393 ta, 1983-yilda 1237 tani tashkil etadi [7.42]. Maktablarda tashkil etilgan maxsus to'garaklar rus tilini yaxshi o'zlashtirishga hissa qo'shdi.

O'zbekistonda olib borilgan til siyosati natijasida ta'lim sohasining asosiy vazifasi rus tilining o'qitish sifatini yaxshilash bo'ldi. 1975-yil oktabrda Toshkentda "Mamlakat maktablari, oliy va o'rta maxsus o'quv yurtlarida rus tilini o'rganish va o'qitish tajribasi"ga bag'ishlangan Butunittifoq ilmiy konferensiyasi bo'lib o'tdi. Ushbu konferensiyadan so'ng O'zbekiston Kompartiyasi Markaziy komiteti "Respublika maktablari, oliy va o'rta o'quv yurtlarida rus tilini o'rganish va o'qitishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori qabul qilindi. Yuqorida berilgan qarorlardan ham anglash mumkinki, ta'limning asosiy e'tibori rus tili ta'lim sifatini yaxshilash va takomillashtirishga qaratilgan. Ma'lumotlardan anglashiladiki, o'zbek tilini o'qitish sifatini yaxshilash bilan bog'liq chora-tadbirlar ko'rilmaganligi, dars soatlarining oshirilmaganligi o'zbek tiliga va mahalliy tillarga nisbatan noxolis til siyosati yuritilganligidan dalolatdir.

1979-yil 22 – 24-may kunlari Toshkentda "Rus tili SSSR xalqlarining do'stligi va hamkorligi tilidir" nomli Butunittifoq ilmiy-nazariy konferensiyasi bo'lib o'tadi. Konferensiyada rus tilining "xalqlar o'rtasidagi yaqinlashuvni kuchaytirish" jarayonida muhimligi ta'kidlanadi. Konferensiya ishtirokchilari ittifoq respublikalarida rus tilining rolini yanada kuchaytirish bo'yicha tavsiyalar qabul qiladi. [6.202] Rus ta'limini yanada yaxshilash, o'quvchilarning fikrini erkin bayon qilish ko'nikmasiga ega bo'lishi maqsadida bolalar bog'chalaridan boshlab rus tilli guruhlari tashkil etilishi tavsiya

qilinadi. Maktabga qadam qo'yadigan bolalar rus tilida o'qish, yozish va so'zlash ko'nikmasiga ega bo'lishi rus tilida ta'lim sifatining oshishiga xizmat qilishi nazarda tutilgan.

Konferensiyada berilgan tavsiyalardan so'ng respublika maktabgacha ta'lim muassasalarida maxsus rus tili guruhleri ochiladi. 1979-yilda bolalar bog'chalarida 618 ta shunday guruhlar faoliyat ko'rsatgan bo'lsa, 1983-yilda 1513 tani tashkil qilgan. Maktabgacha ta'lim muassasa tarbiyalanuvchilarining olti yoshli bolalari uchun maktablarga tayyorgarlik sinflari tashkil etiladi. Ularda rus tili maxsus dastur asosida o'qitiladi. Bunday guruhlar soni tobora oshib bordi. Masalan, 1979-yilda 2304 ta guruhlarda 58970 nafar bolalar; 1983-yilda 6087 ta guruhda 160740 nafar bolalar o'qitilgan. [7.40]

Ta'limda rus tilini o'qitish bog'chadan boshlangan bir vaqtda jamiyatda rus tilli oilalarning soni ortishi, davlat idoralarida ish yuritish rus tilida ekanligi mahalliy aholi orasida rus tilida so'zlashuvchilarning oshib borishiga sabab bo'ldi. 1970-yilgi Butunittifoq aholini ro'yxatga olish ma'lumotlariga ko'ra, rus tilini yaxshi biladigan o'zbeklar soni 20% dan kam bo'lgan bo'lsa, 1979-yilda ularning soni deyarli 44% ga oshgan [1.6].

Har yili O'zbekistondan yuzlab yigit-qizlar RSFSR, Ukraina, Belorussiya va SSSRning boshqa viloyatlarining markaziy oliy o'quv yurtlariga o'qishga yuboriladi. 1974–1975 o'quv yilida Moskva, Leningrad, Kiyev, Minsk, Xarkov va boshqa shaharlardagi 110 ta oliy o'quv yurtlarida respublikaning 3000 dan ortiq talaba-yoshlari tahsil oldi. Ulardan 2200 nafari 12 ta pedagogika institutida tahsil oladi. Ta'limning bakalavr bosqichini tamomlagan talabalar magistratura va doktorantura bosqichini Moskvada tamomlagan. O'zbekistondan kelgan yigit-qizlar yotoqxon va stipendiya bilan ta'minlangan. Aksariyat o'zbek talabalari SSSR oliy o'quv yurtlarini muvaffaqiyatli tamomlaydi. Ammo ayrim O'zbekistonlik talabalar o'qishning birinchi yilidayoq o'z iltimosiga ko'ra o'qishdan chetlashtirish to'g'risida ariza beradi. Buning asosiy sababi rus tilini yaxshi bilmasligi bilan bog'liq bo'lgan.

1983-yil 20 – 21-mayda Samarqandda "Respublika o'quv yurtlarida rus tilini o'qitishni takomillashtirish va Sovet Armiyasiga chaqiriladigan yigitlarning rus tilini yaxshilash" mavzusida respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi bo'lib o'tadi. Konferensiya "Rus tili – xalqlarimizning yaratuvchilik kuch-g'ayratlarini uyg'unlashtirishning umumiy vositasidir. Bu har bir mehnat jamoasining tilidir." g'oyasi ostida tashkil etiladi [8.22].

Xulosa. Xullas, XX asrning ikkinchi yarmida O'zbekistonda olib borilgan til siyosati natijasida rus tilining ijtimoiy sohalarda qo'llanish doirasi kengaydi. Shu bilan birga, milliy tilni qo'llab-quvvatlash bilan bog'liq chora-tadbirlar deyarli amalga oshirilmagan. Bu davrni O'zbekiston tarixida ruslashtirish siyosatining eng faol bosqichi sifatida baholash mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Данилова Л.В. Языковые особенности русской речи узбеков. Ташкент, 1990. – С. 6.
2. Кадыров И.Б. Очерки развития общеобразовательной школы Советского Узбекистана. – Ташкент, 1974. – С.132.
3. Кадыров И.Б. Развитие школ Узбекской ССР в послевоенный период (1945-1962). Ташкент, 1965. – С.44.
4. Махмудов Н. Til siyosati va siyosat tili // o'zbek tili va adabiyoti. – Toshkent, 2016. 4-son. 17-bet.
5. Миртожйев М., Махмудов Н. Тил ва маданият. – Тошкент: Ўзбекистон, 1992. – Б.17.
6. Мустафаева Н.А. Русский язык в школах советского Узбекистана (30-80-е гг. XX века) // Историческая этнология. 2021. Т. 6, № 2. – С.194.
7. Русский язык – могучий фактор общественного прогресса: сборник конференции. –Ташкент, 1984. – С.42.
8. “Рус тили – СССР халқлари дўстлиги ва ҳамкорлиги тили” Бугуниттифок илмий-назарий конференциясининг тавсияномалари // Совет мактаби журнали. – Тошкент: Ўзбекистон КМ Марказий Комитетининг нашриёти, 1983. №4. – Б. 22.

